

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>R.K.Kurbaniyazova</b>	
Milliy mentalitetning tilda namoyon bo'lishi .....	106
<b>Sh.D.Shodmonova</b>	
Jamoat xavfsizligini ta'minlash, unga qarshi tahdidlarni oldini olishning ijtimoiy zarurati .....	110
<b>A.I.Samijonov</b>	
"Xavfsizlik" va "Kiberxavfsizlik" atamasining mazmun-mohiyati va jamiyat hayotida xavflilik darajasini baholanishi .....	114
<b>N.X.Djalalova</b>	
Yoshlar estetik tafakkurini yuksaltirishda ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi .....	119
<b>I.Z.Nazarova</b>	
Yangi O'zbekistonda milliy san'at taraqqiyotining istiqbollari .....	123

---

#### ТАРИХ

<b>A.B.Musayev</b>	
Qo'qon xonligining tashkil topishi arafasida Farg'ona vodiysi .....	129
<b>Ф.А.Эгамбердиев</b>	
Некоторые вопросы использования института жалоб как способ защиты прав участников на досудебной стадии уголовного процесса .....	133
<b>M.M.Xolmatov</b>	
O'zbekistonda kollektivlashtirish asosida agrar sohaning isloh qilinishi va uning oqibatlari.....	138
<b>N.R.Israilov</b>	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati Lui Le Rua talqinida.....	144
<b>O.B.Nizomiddinov</b>	
Farg'ona vodiysida 1920-1930 yillarda ta'lim tizimining rivojlanishi: birinchi oliy ta'lim muassasaning tashkil etilishi .....	149

---

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>Q.V.Yo'lichiyev</b>	
O'zbek she'riyatida anor obrazining tadriji takomili .....	156
<b>A.Badalova</b>	
The effect of war to the inner world of characters in leo tolstoy's novel "War and peace" .....	161
<b>S.F.Yuldasheva</b>	
Xalq qissalarida Hazrati Xizr Alayhissalom obrazi .....	166
<b>D.I.Nazarova</b>	
Hozirgi aruziy she'rlarning qofiya tuzilishi .....	170
<b>S.A.Xodjayev, O.Y.Sobirjonova</b>	
Epik asar syujetida uchrashuv Motivining o'rni (L.Tolstoyning "Baldan so'ng" hikoyasi misolida).....	175
<b>M.R.Oxunova</b>	
Sharlotta Bronte "Jeyn Eyr" romanida xarakter tasviri .....	178
<b>L.Hasanova</b>	
Aesthetics of the literary direction romanticism .....	182
<b>Q.V.Yo'lichiyev</b>	
Abdulla sher sonetlari tahlili .....	186
<b>Z.F.Shukurova</b>	
"Tarixi Rashidiy" asarining hozirgi o'zbek adabiy tiliga tabdil talqini .....	192

---

#### TILSHUNOSLIK

<b>D.M.Yuldasheva, Z.I.Usmonova</b>	
Metaforalarning poetik matndagi o'rni (Siddiq Mo'min ijodi misolida).....	195
<b>Z.V.Alimova</b>	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Zar" va "Zarra" asoslari bilan bog'liq leksemalar xususida .....	198



УО'К: 947.51: 947.2

**QO'QON XONLIGINING TASHKIL TOPISHI ARAFASIDA FARG'ONA VODIYSI****ФЕРГАНСКАЯ ДОЛИНА НАКАНУНЕ ОБРАЗОВАНИЯ КОКАНДСКОГО ХАНСТВА****FERGHANA VALLEY ON THE EVE OF THE FORMATION OF THE KOKAND KHANATE****Musayev Azizbek Baxridinovich** 

Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada XVII asr oxiri – XVIII asrning boshlaridagi Farg'ona vodiysining siyosiy tarixi yozman manba va ilmiy adabiyotlar orqali o'rganilgan. Hududning mazkur davridagi siyosiy holati manbalarda kam yoritilganligi uchun ushbu davrda sodir bo'lgan siyosiy jarayonlar bayonidan kelib chiqib, dastlabki ilmiy xulosalar berilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье политическая история Ферганской долины конца XVII – начала XVIII веков изучена на основе письменных источников и научной литературы. Поскольку политическое положение региона в этот период мало освещено в источниках, сделаны предварительные научные выводы на основе описания политических процессов, происходивших в это время.*

**Abstract**

*This article examines the political history of the Fergana Valley in the late 17th and early 18th centuries through written sources and academic literature. Due to the limited coverage of the region's political situation during this period in the sources, preliminary scientific conclusions have been drawn based on the description of the political processes that occurred during this time.*

**Kalit so'zlar:** Buxoro xonligi, Qo'qon xonligi, Yorkend xonligi, Andijon, Xo'jand, jung'orlar, minglar, yuzlar, Muhammad Rahimbiy.

**Ключевые слова:** Бухарское ханство, Кокандское ханство, Йаркентское ханство, Андижан, Худжанд, джунгары, минги, юзы, Мухаммад Рахимбий.

**Key words:** Bukhara Khanate, Kokand Khanate, Yarkand Khanate, Andijan, Khujand, Dzungars, Ming, Yuz, Muhammad Rahimbiy.

**KIRISH**

Farg'ona vodiysining qulay geografik joylashuvi, hududdagi etnik xilma-xilllik tufayli o'zbek davlatchilik tarixida o'ziga xos tarixiy bosqichlarni boshdan kechirgan. Qadimgi Dovon davlatidan to Qo'qon xonligigacha bo'lgan katta davr so'nggi yillarda alohida tadqiqot mavzusi sifatida o'rganish ancha jadallahdi. Jumladan, ashtarxoniyilar sulolasi davrida Buxoro xonligining siyosiy taraqqiyoti va unda Farg'ona vodiysining tutgan o'rni masalasida ham ayrim tadqiqotlar ko'zga tashlana boshladi. Ammo o'zbek tarixshunosligida mazkur davr nisbatan kam tadqiq etilganligi, mavjud masalani o'rganishda qo'shimcha qiyinchilik tug'dirmoqda. Yozma manbalardagi ma'lumotlarning kamligi, Qo'qon xonligida yaratilgan asarlarda mazkur davr voqealari umumiylar tarzda "Oltin beshik" afsonasi orqali ifoda etilganligi, ayni masalani o'rganish dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mavzuni yoritishda Buxoro, Yorkend xonliklari va Tibetda yozilgan yozma manbalarga asosiy e'tibor qaratildi. Jumladan, "Dastur ul-muluk", "Muhit at-tavorix", "Ubaydullanoma", "Tarix", "Tarixi Koshg'ar", "Oy nuri" kabi asarlar birlamchi manba sifatida tadqiqotga tortildi. Shuningdek, V.Bartol'd, B.Ahmedov, Sh.Qo'ldoshev, B.Chelik kabi tarixchilarning ilmiy nashrlaridan ham ba'zi o'rinnlarda unumli foydalanildi. Tanlangan masalani yoritishda tarixiy tadqiqot olib borishda keng foydalaniladigan mikrotarix, xolislik, qiyosiy tahlil metodlari asosida ilmiy xulosalar taqdim etildi.

**NATIJA VA MUHOKAMA**

XVII asrning ikkinchi yarmi siyosiy jihatdan nafaqat Buxoro xonligi, balki uning shimoliy-sharqiy chegarasida joylashgan Farg'ona vodiysi uchun ham ancha og'ir davr bo'lgan. Xonlikda

tomondan Buxoro va Balxdagi siyosiy guruhlar o'rtasidagi qarama-qarshilik kuchayib borayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan hududga Xorazm qo'shinlarining talon-taroj maqsadida qilgan yurishlari muttasil ko'payib borgan. Mana shunday qiyin vaziyatda Buxoro xoni Abdulazizzon (1645-1681) Xorazm qo'shinlarinin hujumini bartaraf eta oldi. Ammo uning Balxdagi ukasi Subhonqulixon bilan munosabatlari bir tekis kechdi, deyish qiyin.

Bu vaqtida xonlikning shimoli-sharqiy qismida qalmoqlar va Yorkend xonligi tomonidan ham bosimlar kuchaya boshlagan. Ayniqsa, Yorkend xoni Abdullaxon (1638-1667)ning to'rt marotaba Farg'ona vodiysiga hujum qilishi va unga Buxoro xonligi tomonidan hech qanday amaliy ta'sir qilinmaganligi, hududdagi siyosiy barqarorlikka salbiy ta'sir ko'rsatdi [1: 197, 208-209; 5: 110, 117; 11: 110; 13: 196, 202-203, 221]. Shuningdek, Yorkend xonligi hududida yashagan va uning qo'shinidagi ta'sirli o'ringa ega bo'lgan qirg'izlarning ham siyosiy siquvga olinishi, ularni vodiy tomon ko'chishiga sabab bo'ldi [5: 112; 13: 203].

Shuningdek, qalmoqlarning Yettisuvni egallashi va tobora Sirdaryo havzasiga kirib borishi bu yerlarda yashovchi ko'p sonli qozoq-qirg'iz qabilalari uchun ayanchli oqibatlarga olib kelgan. Ular Dasht ichkariga ko'chish bilan birga asosiy qismi Toshkent atrofi va ayrimlari Farg'ona vodiysi tomon harakat qilishdi. Bu esa yerli xalqlar bilan navbatdagi ziddiyatni keltirib chiqarishi tabiiy edi. Shunday qilib, XVII asrning ikkinchi yarmida Farg'ona vodiysidagi siyosiy vaziyat murakkab ko'rinishga ega bo'lgan.

Bu davrda Farg'ona vodiysi Buxoro xonligi tarkibida saqlanib qoldi. Manbalarda xonlikning Xorazm hukmdorlariga qarshi olib borgan kurashlarida Andijon qo'shini ham ishtirot etganligi ta'kidlanadi. Misol uchun, Xoja Samandar Termizi 1686-yili Xorazm xoni Anushaxonga qarshi janglarda Andijon lashkari ishtirot etganligini qayd etган [12: 169]. Ushbu ma'lumot Farg'ona vodiysining ma'muriy boshqarilishida navbatdagi o'zgarishlar bo'lganligini ko'rsatadi. XVII asrning 50-70-yillarida vodiy markazi Xo'jand bo'lgan yuz qabilasining yetakchilari orqali boshqarilgan bo'lsa, yuqorida ma'lumot Andijon shahri vodiyning markazi va sharqiy qismlari uchun yana ma'muriy markazga aylanganligini ko'rsatadi.

Farg'ona vodiysining XVII asr oxiri va XVIII asrning boshlariga oid ma'lumotlar juda kam. Qo'qon xonligi tarixiga bag'ishlangan asarlarning deyarli barchasida "Oltin beshik" afsonasi bayon qilinib, yuqorida davni umumiy mazmunga ega ma'lumotlar bilan ifoda etilgan. Ammo bu afsona bo'lib, tarixiy haqiqatdan ancha uzoq. Mavjud manbalarga tayanib, mazkur masalaga aniq javob berish mushkul masala. Shunday bo'lsa-da, Buxoro, Balxda yozilgan manbalardagi ayrim ma'lumotlarni tahlil qilish orqali ba'zi xulosalarni bildirish mumkin.

Subhonqulixon (1681-1702) davrida avj olgan o'zbek urug'lari o'rtasidagi ziddiyatlar, ayniqsa Ubaydullaxon II (1702-1711) davrida yuqori cho'qqiga chiqdi. Bu esa, joylardagi urug' vakillariga o'zini mustaqil deb e'lon qilishiga katta yo'l ochib berdi. Farg'ona vodiysida yashagan ming urug'i ham siyosiy vaziyatdan foydalanib, Shohruxbiy boshchiligidida mustaqil xonlikka asos solgan. Buxoro xonlari amalda ularga biror qarshilik ko'rsata olmadи.

XVII asrning 80-yillarida Buxoro-Xorazm munosabatlari ziddiyatl bo'lib, ular o'rtasida qator janglar bo'lib o'tgan. Ayniqsa, 1686-yilgi janglar shiddatli bo'lib, Buxoro qo'shinlari tarkibida andijonliklar ham harakat qilganligi ma'lum [12: 169, 232]. Xorazm xoni Anushaxon (1663-1686)ga qarshi jang qilgan Buxoro qo'shinlariga Xo'shikabiy yuz bahodir boshchilik qilgan. Umuman olganda, Subhonqulixon davrida ushbu amirning mavqeyi yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin. Boqibiy isyonidan so'ng yuz urug'i xonlikning shimoli-sharqiy qismida kuchli ta'sirga ega bo'lganligi, keyinchalik Muhammad Rahimbiy yuz davrida u yana bir pog'ona ko'tarilganligini inobatga olinsa, yuz urug'i Buxoro xonligida katta mavqega ega edi. Keyinchalik otaliq mansabiga erishgan Xo'shikabiy yuz 1686-yil 2-iyun kuni Toshkentda qozoq xoni Tavka (Tavakkal) bilan muzokara olib borganligi ma'lum [8: 95-96]. 1688-1689-yillarda esa u Toshkentda O'russulton yuzga qarshi kurash ham olib borgan. Xo'shikabiy yuzning o'g'li Xalibek yuz Hisor hokimi ham bo'lgan. Bu vaqtida yuz hamda ming urug'lari qarama-qarshiligi haqida ma'lumotga duch kelinmaydi. Anushaxonga qarshi kurashda Subhonqulixonga yordam berish uchun O'rusepadan Muhammad Rahimbiy yuz va Allaberdibiy ming kelganligi ma'lum [12: 186]. Ehtimol, ana shu Allaberdibiy ming Farg'ona vodiysi minglaridan bo'lib, Muhammad Rahimbiy yuz bilan yaqin munosabatda bo'lgan. Yuz urug'i Subhonqulixon davrida katta mavqega ega bo'lib, Andijon hamda Xo'jand viloyatlari Muhammad Rahimbiy yuz qo'l ostidagi hududlar qatorida qayd etilgan [7: 35]. Ubaydullaxon II

## TARIX

hukmronlikining dastlabki yillarda Muhammad Rahimbiy yuz hamda Urgut hokimi Allaberdibiy ming o'rtasida kurash bo'lib, unda yuz urug'i g'olib chiqqan edi [7: 34-38]. "Dastur ul-muluk" va "Ubaydullanova"da qayd etilgan Allaberdibiy ming aslida bir tarixiy shaxs deb, tahmin qilish mumkin. Agar shunday bo'lsa, Allaberdibiy ming Buxoro xoniga xorazmliklarga qarshi kurashda ko'rsatgan yordami tufayli Urgut hokimligini qo'lga kiritgan. Bu-ikki urug' o'rtasidagi ilk kurash bo'lib, voqeal taxminan 1702–1703-yillarda bo'lib o'tgan. Ubaydullaxon II Muhammad Rahimbiy yuzga otaliq mansabini, uning akasi Qobulbiyga esa Samarcand viloyatini bergan. Natijada Muhammad Rahimbiy yuz Buxorodagi eng kuchli amirga aylandi. Subhonqulixon va Ubaydullaxon II Balxda katta ta'sirga ega Mahmudbiy qatag'onga qarshi kurashda, aynan, yuz vakillariga tayangan [7: 95; 8: 134-138]. "Ubaydullanova" asarida Muhammad Rahimbiy yuz 1707-yil voqealarida so'nggi bor tilga olingan. Aftidan, shu yil u vafot etgan va o'miga o'g'li Oqbo'tabiy hokimlikni davom ettirgan [9: 228]. Ammo u otasi singari xonlikda yetakchi rol o'ynay olmadi. Bu esa, Farg'ona vodiysida minglar mavqeyining kuchayishiga imkon yaratdi.

XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab, Xoja Ahror Valiy misolida diniy ruhoniylar markazi hokimiyatda katta rol o'ynay boshlaganligi ko'zga tashlanadi. Mazkur jarayon, shayboniylar, ashtarxoniyalar va undan keyingi sulolalar hokimiyatida ham davom etdi. Farg'ona vodiysiga XVII asrning oxirlaridan boshlab, qozoq, qirg'iz ko'chmanchilarga qo'shimcha tarzda kuchli qalmoqlar ham hujum qila boshladi. Ularning tazyiqi dastlab, qirg'izlarga ta'sir etgan bo'lsa, 1692-yildan amalda Yorkend xonligini egallab olishdi. Bu esa, Farg'ona vodiysiga jiddiy xavf edi. Jung'orlar buddaviylikka sig'inishidan kelib chiqilsa, ularga qarshi kurashda diniy ulamolar katta rol o'ynashi tabiiy bo'lgan. 1683–1685-yillarda qalmoqlar qirg'iz va farg'onaliklar ustiga uch bor yurish ham qilishgan [10: 98; 4: 84]. Yettisuv hamda Sharqiy Turkistonda qalmoqlarning kuchayib ketishi Farg'ona vodiysiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniq edi. Bu vaqtida, Buxoro xonlari vodiyni ulardan himoya qilishga qodir bo'lmagan. Siyosiy va diniy qarama-qarshilik tufayli siyosiy maydonga diniy ulamolar kirib kelishiga yo'l ochilgan. Masalan, 1678-yil qalmoq xoni Galdan Boshoktu yordamida Ofoqxo'ja Yorkend xonligi taxtini egallagan edi [6: 10]. Keyinchalik, qoratog'lik Xoja Doniyol ham xonlikni boshqargan [2: 120-121]. Subhonqulixon davrida esa Mahmudbiy qatag'on yordami bilan Balxda yana bir ulamo Solihxoja 1697-yilgacha hukmronlik qilgan [3: 120-121]. Ubaydullaxon II ning amalga oshirgan soliq islohoti natijasida diniy ulamolar ham soliqqa tortilishi, bu vaqtida Farg'ona vodiysining katta qismida ta'sirga ega bo'lib ulgurgan Chodak xojalariga ma'quil kelmagan. Shuning uchun ular mustaqillik uchun kurash yo'lliga o'tgan.

## XULOSA

O'rta Osiyodagi xonliklarda boshlangan o'zaro urushlar diniy ulamolarning siyosiy ta'sirini oshirgan, hatto ular Yorkend, Balxda ma'lum vaqt hokimiyatga ega ham chiqishgan. Farg'ona vodiysi ham mazkur jarayondan chetda qolmagan, qalmoqlarga qarshi kurash, hududda asrlar davomida diniy ulamolarning siyosiy ta'siri mavjudligi Chodak xojalarining mustaqil bo'lisligha olib kelgan.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Çelik M.B. Yarkend hanlığı'nın siyasi tarihi. IQ Kültür Sanat Yayıncılık – İstanbul, 2013. – 264 s.
2. In remembrance of the saints (Tazkira-yi 'azizān) : the rise and fall of an Inner Asian Sufi dynasty / Muhammed Šadiq Kashghari; Translated by David Brophy. – New York City: Columbia University Press, 2020. – 264 p.
3. Ахмедов.Б.А. История Балха (XVI – первая половина XVIII в.). – Тошкент: Фан, 1982. – 295 с.
4. Бартольд В.В. Очерк истории Семиречья. Киргизск. фил. Акад. Наук СССР, Институт языка, лит. и истории. – Фрунзе: Киргизгосиздат, 1943. – 104 с.
5. Карапов О.К. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. Образование кыргызского народа. – Б.: Кыргызстан, 1995. – 160 с.
6. Қўлдашев Ш. Қўқон хонлиги ва Шарқий Туркистон: сиёсий, иқтисодий ва маданий алоқалар [Матн] / нашрга тайёрловчи Шерали Қўлдашев. – Тошкент: Академнашр, 2021. – 256 б.
7. Мир Мухаммад Амини Бухари. Убайдулла-наме. / Перевод с таджикского с примечаниями член-корреспондента Академии Наук Узбекской ССР профессора А.А. Семёнова. – Ташкент: АН УзССР, 1957. – 326 с.
8. Мұхаммад Амин Бухорий. Мұхит ат-таворих / форс тилидан таржима, кириш ва изохлар мұаллифлари: т.ф.д., проф.академик Д.Ю. Юсопова ва т.ф.н. У.Хамроев. – Тошкент: Фан, 2020. – 284 б.
9. Мұхаммадхакимхон тўра. Мунтахаб ат-таворих: (Хўқанд ва Бухоро тарихи, саёҳат ва хотиралар) / Мұхаммадхакимхон тўра; форс-тоҷик тилидан тарж., мұқаддима, изохлар ва кўрсаткичлар мұаллифи Ш.Воҳидов. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. – 716 б.

10. Ряднабхадра. Лунный свет: История рабджам Зая-пандиты. Факсимile рукописи; перевод с ойратского Г.Н. Румянцева и А.Г. Сазыкина; транслитерация текста, предисловие, примечания и указатели А.Г. Сазыкина. – СПб.: Петербургское Востоковедение, 1999. – 176 с.

11. Тарих-и Кашгар. Факсимile рукописи: издание текста, введение и указатели О.Ф. Акимушкина. – СПб.: Петербургское востоковедение, 2001. – 296 с.

12. Термизий, Хожа Самандар. Дастур ул-мулук: Подшоҳлар учун дастур (тўлдирилган иккинчи нашри) форс-тоҷик тилидан эркин таржима, сўз боши, тадқиқот, ҳикоялар, изоҳлар муаллифи Ж.Эсонов. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 351 б.

13. Шах-Махмуд ибн Мирза Фазил Чурас. Хроника / Критический текст, перевод, комментарии, исследование и указатели О.Ф. Акимушкина. – 2-е изд. – СПб.: Петербургское лингвистическое общество, 2010. – 496 с.